



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 492 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi.....	28
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish	34
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning	37
Burkhonova Zarafuz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich	
The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition.....	40
Dilorom Poyonova	
Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish	45
Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna	
Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture.....	49
Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	52
Makhmudova Ugliy Baxtiyarovna	
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish	57
Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinovna	
Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish.....	61
Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish	65
Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi	
An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms	68
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna	
The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs	71
Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna	
Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish	74
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi	
Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish	77
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi	
O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi	80
Sh. F. Mustafayeva	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	85
Turayev Alimjan Bahriddinovich	
The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development.....	88
Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina	
A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning	91
Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich	
Modern Education and Training Practices for Future Dentists	94
Turumova Marjona Bahodirovna	
Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish.....	98
Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna	



Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari	102
<i>Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari	106
<i>Xoldarova Mubina Qudratbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari	110
<i>Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi</i>	
Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков	114
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры	118
<i>Мукимов Олим Эргашевич</i>	
Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework	122
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich</i>	
Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта	125
<i>Хужаниязова Гузаль Юлдашевна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish	130
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar	133
<i>Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi</i>	
Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida.....	138
<i>Rustamova Ma'mura Asqar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish	141
<i>Shorustamboyeva Shahnoza Ulug'bekovna</i>	
The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language	144
<i>Tursunoy Ortiqova</i>	
Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili	149
<i>Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash ..	153
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	156
<i>Murtazayeva Nasiba Komiljonovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish	159
<i>Xusnidinova Saodat</i>	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	163
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
Integrating Quizlet, Kahoot, and Padlet Into Vocabulary Instruction: An Experimental Study With Undergraduate Philology Students.....	167
<i>Inoyatova Umida Boxadir qizi</i>	
Advantages and Disadvantages of Teaching Students Via Competent Based Approach in Order to Improve Their Listening and Speaking in Finland	171
<i>Abdukhakimova Kamola Akmalovna, Rahmatova Mohijahon Ahmad qizi</i>	
Kimyo ta'limida iqlim o'zgarishlariga oid ilmiy ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish	175
<i>Akbarova Saidaxon Rustamovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida pediatriya talabalari klinik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlarining roli.....	180
<i>Atadjanova Shaira Xalilovna, Umarkulov Muxtorali Islomkulovich</i>	

Individual ta'lim muhiti asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy-metodik tayyorlashni takomillashtirish.....	185
<i>Azamatova Dildora Shuxrat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimida raqamli ta'limni joriy etishning innovatsion yondashuvlari va samaradorlik omili.....	189
<i>Babayeva Dilnoz Xaydarovna</i>	
O'qish savodxonligini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni (PISA va PIRLS)	192
<i>Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi</i>	
Yosh rahbarlarda boshqaruv stressining namoyon bo'lishi va boshqaruv faoliyatiga moslashuv muammolari: ta'lim tizimi sharoitida psixologik holat tahlili.....	195
<i>Djavgarova Dilfuza Shuxrat qizi</i>	
Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish asosida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish strategiyalari.....	199
<i>Duvlayeva Nozigul Xolmuxammad qizi</i>	
Enhancing English Learners' Pronunciation Through AI-Based Language Applications.....	203
<i>Egamova Munisa Khakim kizi</i>	
Maktab ta'lim tizimining dars jarayonlarida elektron qo'llanmalardan samarali foydalanish.....	208
<i>Kodirov Akbar Shuxratovich</i>	
Improving the Methodology of Teaching Biochemistry in Medical Higher Education Institutions Through Virtual Laboratory Tools	213
<i>Mamadaliyeva Zarina Rakhmat kizi</i>	
O'smirlarda kommunikativ tolerantlik muammosining nazariy-metodologik asoslari.....	218
<i>Mirsidikova Aziza Mirvohidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini tashkil etishning nazariy asoslari	221
<i>Muxtorova Xusnidaxon Abdug'oprovna</i>	
Improving the Theoretical and Methodological Foundations for Integrating Generative Artificial Intelligence Technologies Into English Language Teaching in Higher Education	226
<i>Nigmatova Nozimakhon Ulugbek kizi</i>	
Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi: zamonaviy yondashuvlar va ilmiy asoslar.....	229
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning ilmiy va ijodiy kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan axborot tizimini yaratish	233
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Ro'zimatova Saidaxon Abdivoixid qizi</i>	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.....	237
<i>Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li</i>	
Oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatlarini samarali tashkil etish	242
<i>Qurbonova G. M.</i>	
Kasbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv yondashuvning metodologik asoslari	245
<i>Raxmatova Shaxnoza Oybek qizi</i>	
Inkluziv ta'limda pedagogik diagnostika: maxsus ehtiyojli o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash	248
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	252
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	254
<i>Shaymatova Aziza</i>	
Dasturiy-metodik majmuani ishlab chiqish bosqichlari hamda pedagogik talablar.....	259
<i>Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi</i>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	265
<i>Suyarova Orzigul Sodiq qizi</i>	



Yoshlarni nikohga tayyorlashda shaxsiy omillar va psixologik yetuklik.....	269
To'xtamatova Nargizaxon Abdullayevna, Buranova Sevara Sa'dullayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida rahbarlarning liderlik kompetensiyalarining hozirgi holatini diagnostika qilish	273
Taylakova Dilnoza Norbekovna, Latifova Mavjuda Xurramovna	
Ta'limga o'qib tushinishni sun'iy intellekt bilan integratsiya qilish imkoniyatlari va pedagogik strategiyalari.....	276
Umarov Bahrom Norboyevich	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	281
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati.....	286
Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi	
Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rganishning ahamiyati va undagi zamonaviy yondashuvlar	289
Yoqubjonova Mohlaroyim Abdumalik qizi	
O'smir shaxsida refleksiyani shakllanishida ota-ona munosabatlarning ta'siri	292
Yulchiboyeva Dilfuza Ergashevna	
Boshlang'ich ta'limda geymifikatsiya orqali til kompetentligini rivojlantirish.....	297
Zokirova Sohba Muxtoraliyevna, Nurmuhamedova Dilshoda Zaynobiddin qizi	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	302
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Ortodontiyada mioterapiya: miogimnastik dentoalveolyar apparatlarni qo'llashning taqqoslama tavsifi	305
Tursunov Begzod Sherzodovich, Sayfulayeva Aziza Anvarovna	
Музейная педагогика на уроках воспитания в средней школе: методика включения музейных практик в процесс обучения и воспитания подростков	308
Умрихина Виктория Игоревна	
21St Century Dental Innovation Technologies: An Overview	314
Khojimurodov Burkhon Ravshanovich	
Цели и задачи педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах	317
Шарипова Шахноза Шавкат кизи	
Способы повышения мотивации учащихся при изучении русского языка.....	321
Эшонкулов Хамрокул Маматкулович	
Yosh sportchilarda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional mashqlarning ahamiyati.....	326
Aminov Botir Umidovich	
Nutqiy faoliyatda fikr va til tizimlari.....	330
Axmedova Muyassar Xadimatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish psixologiyasi	333
Axmedova Muyassar Xadimatovna, Halimova Gulasal Xamroqulovna	
10–12 yoshli tennischilarda texnik tayyorgarlik samaradorligini oshirish uslubiyati	336
Axmedova Nafisa Isaxodjayevna	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish masalalarining ilmiy tadqiqi.....	340
Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna	
Musobaqa oldi bosqichida tennischilarning maxsus jismoniy sifatlarini kompleks mashqlar yordamida rivojlantirish uslubiyati.....	345
Azamatov Abdullo Isaxo'ja o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuv	349
Choriyeva Durdona Anvarovna, Po'latova Mahfuza To'liqin qizi	
Xorij olimlari tadqiqotlarida mustaqillik sifatini rivojlantirishga oid yondashuvlar	354
D. A. Saliyeva	
Milliy adabiyot namunalari yordamida talabalar tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	358
Erallyeva Dilnoza Oybek qizi	

Oliy ta'lim tizimida tyutorlik institutini rivojlantirishning dolzarb masalalari	362
<i>Kandaxarov Zafar Ishratovich, Tajibayeva Komila Taxirjonovna</i>	
Integrating Communicative and Task-Based Approaches in English Language Teaching Within a Learner-Centered Framework	366
<i>Madinabonu Farkhodova</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijobiy munosabatlarni shakllantirish usullarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	370
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari	373
<i>Mamatova Dilnoza Bekpo'latovna</i>	
7-sinf biologiya kursini o'qitishda o'quvchilarning metodologik savodxonligini shakllantirish	377
<i>Mirzayeva Nigoraxon Ibrohimjon qizi, Azimov Bekjon Ibrohimjon o'g'li</i>	
10–12 yoshli belbog'li kurashchilarini o'quv-mashg'ulot jarayonida koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirish	380
<i>Mirzoqulov Sh. A.</i>	
Pedagog xodimlarning malaka-mahoratini oshirish – samaradorlik omili	384
<i>Musurmonova Mariya Burxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini tizimli yondashuv asosida boshqarishning pedagogik mexanizmlari	387
<i>Muxamatova Gulmira Erkinjon qizi</i>	
Zamonaviy o'zbek tilida so'z tartibi va sintaksis xususiyatlari	392
<i>Narimova Gulnora Abdumannonova</i>	
Ilmiy va innovatsion boshqaruv yondashuvlari orqali o'quv jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyalari	396
<i>Norbo'tayev Baxtiyor Abduraximovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida algebraik fikrlashni rivojlantirishda mental arifmetikaning o'rni va roli	400
<i>Nurillayev Samad Safarovich, Qodirova Nilufar</i>	
Bolalarning sportga oid ta'lim-tarbiya madaniyatini shakllantirish omillari va yo'nalishlari	405
<i>Ochilov Jonibek Abdo'xomid o'g'li, Rishad Badayev</i>	
Raqamli ta'lim jarayonida pedagoglarning AKT va media savodxonligini oshirish bo'yicha samarali metodik yondashuvlar	408
<i>Rashidov Sherzod Abdirayimovich</i>	
Didaktik o'yinlar yordamida o'quvchilarning ona tiliga doir bilimlarini mustahkamlash	413
<i>Raxmataliyev Sherzod</i>	
Bosh harflar ramzga aylanganda: monogrammaning zamonaviy grafik dizayndagi ahamiyati	416
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish usullari	420
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Tursunova Saida Soliyevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida noverbal muloqot kompetensiyasini shakllantirish metodlari	423
<i>Xolmo'minova Bahora Abdujalolovna</i>	
Frustratsiya holatining psixologik mohiyati va uni yengish mexanizmlari	426
<i>Y. E. Sobirov</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ertaklarni hikoya qilishda motiv va syujetning tarbiyaviy ahamiyati ("Pahlovon Rustam" ertagi misolida)	430
<i>Zulayxo Nazarova, Farangiz Mardiyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb saytlari sifatini oshirishda sun'iy intellektdan neft va gaz sohasida foydalanish muammolari	433
<i>Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi</i>	
Развивать личностные качества учащихся на уроках географии	437
<i>Шадиева Нигора Шариповна, Нуруллоева Нилуфар Рузимбоевна</i>	



Ilk yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishini psixologik xususiyatlari.....	442
<i>Axmedova Muyassar Xadimatovna, Rajabova Sarvinov Raxmon qizi</i>	
O'quvchilarda mustaqil ta'lim faoliyatini shakllantirishda kognitiv va metakognitiv strategiyalarning o'zaro integratsiyasi	445
<i>Boymonov Hoshim Isroilovich</i>	
Socio-Psychological Characteristics of the Impact of Social Stigma on the Psycho-Emotional State of Women Experienced in Domestic Violence	449
<i>Dumarova Gulfira Kozimbekovna</i>	
Interfaol o'qitish metodlari orqali o'quvchilarda kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish texnologiyasi.....	452
<i>Jalilova Sevinch Shuhrat qizi</i>	
Akmeologik yodashuv asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi.....	455
<i>Kuchkorova Ozoda G'ayrat qizi</i>	
Sportchilarning jismoniy tayyorgarliklari	459
<i>Madaminov Oribdjan Nishanbayevich</i>	
Psixokorreksiya va psixodiagnostikada proektiv metodning qo'llanishi.....	462
<i>Narbasheva Mexri Achilovna, Odinayeva Farangiz Ilxombek qizi</i>	
Talabalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik jihatlari	465
<i>Safayev Nuriddin Salixovich</i>	
Bolalar nutqini o'stirish jarayonida milliy tarbiyani yo'lga qo'yishning pedagogik imkoniyatlari	469
<i>Valijon Qodirov, Umarova Mubina Ziyoyidin qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik rivojlanishining psixologik-pedagogik xususiyatlari.....	473
<i>Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Hamidova Anisa Olimovna</i>	
O'quvchilarning informatika va axborot texnologiyalari fanidan mustaqil o'quv faoliyati natijalarini baholash metodikasi (IIV akademik litseylarida iivakademik.uz veb-platformasi misolida).....	476
<i>Axmedov Yodgorbek Olimjonovich</i>	
Влияние цифровых технологий на современное общество.....	482
<i>Абдукаримова Шахноза Набиевна</i>	
Mantiqiy tafakkurning falsafiy asoslari va zamonaviy tafakkur turlari (kliplik, tanqidiy, kreativ tafakkur va boshqalar)	485
<i>Jo'rayev Shuhratbek Maxamadaliyevich</i>	
Aralash ta'lim (blended learning) texnologiyasidan foydalanish orqali tasviriylar san'at darslarini samarali tashkil etish.....	488
<i>Olimov Anvarjon Mamirovich</i>	



TALABALARDA MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Safayev Nuriddin Salixovich

O'zMU professori, psixologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning psixologik jihatlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda mantiqiy fikrlashning shakllanishida muammoli vaziyatlar va savollarning tutgan o'ri ochib berilib, ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan "Nega?", "Nima uchun?", "Qanday qilib?" kabi refleksiv savollardan tizimli foydalanishning ahamiyati asoslanadi. Muammoli savollar orqali talabalarni mustaqil fikrlashga, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga hamda bilimlarni ongli ravishda egallashga yo'naltirish mumkinligi ta'kidlanadi. Maqolada mantiqiy fikrlashni rivojlantirish intellektual salohiyatni oshirishning muhim omili sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: tafakkur, mantiqiy fikrlash, talabalar, muammoli savol, pedagog, intellekt, bilim, tafakkur operatsiyalari.

Abstract: This article analyzes the psychological aspects of developing students' logical thinking abilities from a scientific and theoretical perspective. Particular attention is paid to the role of problem-based situations and questions in the formation of logical thinking. The study emphasizes the pedagogical relevance of systematically using reflective questions such as "Why?", "For what reason?", and "How?" in the teaching process. It is argued that problem-based questioning encourages students to think independently, identify cause-and-effect relationships, and consciously acquire knowledge. The article interprets the development of logical thinking as a key factor in enhancing students' intellectual potential.

Key words: thinking, logical thinking, students, problem-based question, teacher, intellect, knowledge, thinking operations.

Аннотация: В статье с научно-теоретических позиций рассматриваются психологические аспекты развития навыков логического мышления у студентов. Раскрывается значение проблемных ситуаций и вопросов в формировании логического мышления, а также обосновывается целесообразность систематического использования преподавателем таких рефлексивных вопросов, как "Почему?", "Зачем?", "Как?". Подчеркивается, что постановка проблемных вопросов способствует развитию самостоятельного мышления студентов, осознанию причинно-следственных связей и осмысленному усвоению знаний. Развитие логического мышления рассматривается как важный фактор повышения интеллектуального потенциала личности.

Ключевые слова: мышление, логическое мышление, студенты, проблемный вопрос, педагог, интеллект, знание, мыслительные операции.

KIRISH

Respublikamizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarda yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratilib, ularning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishning qonuniy asoslari shakllantirilgan¹. "Oliy ta'lim tizimida individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish"² bo'yicha kompleks vazifalar belgilandi. Ushbu kompleks vazifalar ijrosini ta'minlashda ijtimoiy fanlar yo'nalishi talabalarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari yuzasidan yangi yechimlar topish imkoniyati tug'ildi.

1 "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.

2 "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga/Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

Tafakkur murakkab jarayon bo'lib, bunda voqelik umumlashtirilgan va vositalangan holda aks ettiriladi. Hozirgi kunda o'quvchi va talaba-yoshlarda mustaqil, mantiqiy fikr yuritish malaka va ko'nikmalari hosil qilinishida o'qituvchi-o'quvchi, talaba-pedagog o'zaro munosabatlari tubdan o'zgartirilgan bo'lib, bilim oluvchi shaxs ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida faoliyat yuritadi. Har bir o'quvchida, talabada mustaqil fikrlashni rivojlantirish, malakali yetuk mutaxassislar yetishtirish professor-o'qituvchilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bilimlarni puxta egallashda fikrlash, mantiqiy tafakkur katta ahamiyatga ega ekanligi haqida o'z davrida Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom kabi buyuk allomalari-miz ham o'z fikrlarini bildirib o'tganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy ko'plab asarlarida bilish masalasiga katta e'tibor beradi. U bilishda ikki bosqichni - hissiy va aqliy bilishni farqlaydi hamda bilishda inson aqlining roliga ahamiyat beradi. Forobiy insonlarni ilmi bo'lishga chaqirib, o'quvchining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surgan. U o'quvchiga ta'lim berish, uni ilmi qilish uchun o'qituvchi tinmasdan mashaqqatli mehnat qilsagina o'quvchi o'qishga, ta'lim olishga, bilimli bo'lishga intilishi mumkinligini ta'kidlaydi. O'qituvchi o'quvchiga bilim beraman desa, o'quvchi oldida haqiqatgo'y bo'lishi kerak, o'zi fahm-farosatli bo'lib, or-nomusini qadrlashi lozim, shogirdlariga nisbatan adolatli bo'lishi, ko'zlagan maqsadiga erishishda qat'iylilik ko'rsata bilishi va o'rnak bo'lmog'i joiz, deya ta'kidlaydi mutafakkir.

Forobiy tushunishni, bilimning mohiyatini uqib, anglab olishni quruq yodlashdan ustun qo'yadi, o'quvchiga umumiy qonun-qoidalarini o'zlashtirishni tavsiya etadi, chunki qonun- qoidalarini anglash, uning e'tirofiga ko'ra, juda katta ahamiyatga ega. Allomaning mulohazasiga binoan, har qanday o'quvchi o'z xatti-harakatidan xabardor bo'lmog'i, ya'ni o'zini anglagani, zamonaviy psixologiya fani terminologiyasiga ko'ra, o'zini refleksiya qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi va shu sa'y-harakatlari tufayli baxtga erisha oluvchi insonligini anglamog'i lozimdir. Forobiy o'quvchining shaxsiga xos qator fazilatlariga holisona sharh bergan olimdir.

Qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning fikricha, inson tafakkuri, aql kuchining rivojlanishi bir necha bosqichdan iborat. Aqliy kuchlar dastlab mutlaq tinch, sokin holatda bo'ladi. Bolalardagi yozishni, o'qishni o'rganishdagi potensial kuchlar shunga misol bo'la oladi. Abu Ali ibn Sino bu kuchlarni moddiy kuchlar deb nomlagan, ya'ni mazkur kuchlarni tashqi motivlar deb tushunsa bo'ladi. Sekin-astalik bilan bu kuchlar harakatga aylanadi, bular mehnat quroli samarasidir, ya'ni mehnat quroli orqali harakatga keladi va namoyon bo'ladi. Bu holatni bola yozishni xohlab turibdi-yu, ammo yozish quroli bo'lgan qalamning yo'qligi bilan izohlash mumkin. Bu ikki kuchni Ibn Sino ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan kuch deb atagan. Nihoyat, uchinchi kuch esa irodaning yetishmasligi bilan tushuntirib beriladi. Ya'ni shunday holatning kuchi bor, ammo uni ishlatishga, ro'yobga chiqarishga bolada iroda yetishmaydi. Alloma nazarida, shu kabi uch holat bilan aql, bilim olish izohlanadi.

Ibn Sino "Xayy ibn Yaqzon" qissasida inson fe'l-atvorini, ruhiyatini tushunish uchun mantiq ilmini o'rganishga chorlaydi. Bu fan inson tafakkur doirasining kengayishiga katta yordam beradi. Insonlarning fe'l-atvorini bilish uchun o'qish, o'tkir bo'lish uchun farosat ilmidan xabardor bo'lish kerak. Darhaqiqat, ilm o'rganishga Forobiy musiqiy, falsafiy ilm bilan da'vat etgan bo'lsa, ibn Sino mantiq ilmi orqali da'vat etgan.

O'quvchilarning o'qish faoliyatiga oid fikrlar qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham o'z aksini topgan. Uning fikriga ko'ra, bilim olish uchun o'quvchilarda avvalo intilish va qiziqish bo'lishi kerak. Darhaqiqat, nimanidir o'rganish, tadqiq qilish uchun insonda intilish, harakat va qiziqish bo'lmasa, u hech narsaga erisha olmaydi. Ilm olishning muhim yo'llaridan biri inson hammani o'ziga do'st tutishi va boshqa insonlarga ham yaxshilik qila olishi lozim. Olimning mazkur fikrlarini fan tilida o'quv faoliyatiga nisbatan ehtiyoj tug'ilsagina o'quv motivlari shakllantirilishi mumkin, deya talqin qilsa bo'ladi.

Beruniy ilm olishda axloqiy poklikni yuqori o'ringa qo'yib, ta'lim va tarbiyani bir xil izchillikda olib borganlar komil inson darajasiga erishadilar, deydi. Beruniy o'qitish uchun muallim o'z malaka va bilimlarini doimo orttirib, zamonga moslashib borishi lozimligini uqtiradi. U kitob o'qish usullariga alohida e'tibor qaratadi. Kitoblarni shunchaki emas, fikrlab, kichik-kichik bo'limlarga bo'lib o'qish va umumlashtirib borish kerakligi haqida ma'lumotlar beradi. Beruniy o'qitishda faqat induktiv (umumiy xulosa) yo'l bilangina emas, balki deduktiv (juz'iy xulosa) yo'l bilan ham ish tutish lozimligini ta'kidlaydi, zotan bunday o'qishda tafakkur kengayib, bilimlar ortib boradi.

Abu Rayhon Beruniy o'qituvchilar o'quvchining e'tiborini taqqoslash, qiyoslash kabi operatsiyalarga qaratishlari lozimligiga alohida ahamiyat beradi. Zotan, bugungi kunda ham ongli, ifodali, to'g'ri va tez o'qish hozirgi zamon o'quvchilarining savodli bo'lishlarini ta'minlovchi asosiy tarkibiy qismlardandir.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashga zo'r berib, yosh o'quvchilarni toliqtirib va zeriktirib qo'ymasdan, turli psixologik usullarni qo'llashni, shu orqali ularning tafakkurini boyitib, bilimlarini chuqurlashtira borishni ilgari surgan buyuk zotdir. Ya'ni o'qishga nisbatan bo'lgan qiziqishni so'ndirmaslik uchun bolalarning yoshiga xos psixologik xususiyatlar albatta inobatga olinishi kerakligini e'tirof etadi.



Beruniyning tafakkur operatsiyalari - analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabilarni shakllantirish orqali o'qishga qiziqish uyg'otish haqidagi fikrlari to hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Sharqning boshqa bir yirik olimi Burhoniddin Zarnujiy o'zining "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" kito-bida: "O'qib o'rganish uchun eng yaxshi vaqt yoshlik davri, erta tong va qosh qoraygan payt. Bilim oluvchi ana shu vaqtni samarali tashkil etishga odatlansin, bordi-yu, unga bir fan zerikarli bo'lsa, boshqasi bilan mashg'ul bo'lsin", - deya ta'lim beradi. "Ta'limul – mutaallim" nomli kitobida esa ta'limning uzviylik tamoyilini e'tirof etadi ^[1].

XI asrda yashab ijod etgan Mahmud Qoshg'ariy ham o'zining "Devonu lug'atit turk" asarida bilim olishga da'vat etgan. Asardagi: "Ey o'g'lim, mendan o'git, nasihat ol, odobli va tarbiyali bo'lishga tirish, toki el ichida zo'r olim bo'lib tanil va ular orasida odob va ilm tarqat" yoki "Ilm, hikmat o'rgan, o'rganishda havoyilik va takabburlik qilma, hech narsa o'rganmasdan, o'zini bilimdon ko'rsatib maqtangan kishi imtihon vaqtida uyaladi, achinadi" kabi fikrlari buning yorqin misolidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz tomondan olib borilgan tadqiqot O'zMU Ijtimoiy fanlar fakultetining 1-kurs talabalarida o'tkazildi. "Mantiqiy fikrlash nima?" degan savolga talabalarning 35% bu - o'z fikrini aniq ayta olish, uni isbotlashdir, deb javob qaytargan. Sinaluvchilarning 30% - o'zining dunyoqarashini ifodalashdir degan bo'lsa, 14,4% yoshlar – ongida paydo bo'lgan fikrlarni nutqda aks ettirish, deb javob qaytargan. 13,3% talabalar mantiqiy fikrlash atrof-dagi narsalarga o'z munosabatini bildirishdir, degan nuqtai nazarda bo'lsa, 4,4% sinaluvchilar - fikr insonning ichki kechinmalaridan o'tilib chiqadigan kuchli vulqondir. Uning mantiqiy, ijodiy bo'lishi insonni qat'iylikka, irodali bo'lishga chorlaydi, deb javob berganlar.

Yuqorida guvoh bo'lganimizdek, talaba yoshlarimizning mantiqiy fikrlash haqidagi qarashlari turlicha.

Rejadagi ikkinchi, ya'ni "Mantiqiy fikrlashni qanday qilib rivojlantirish mumkin?" degan savolga 61,1% talabalar ko'plab kitob, gazeta, jurnallar o'qib, yangiliklardan xabardor bo'lish orqali, 32,2% boshqa kishilar bilan muloqotda bo'lish, 4,4% ijodiy ishlar bilan shug'ullanish orqali, 3,3% esa turli bahs-munozaralarda ishtirok etish vositasida rivojlantirish mumkin, deb fikr bildirganlar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, talabalarning ko'p foizi mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda kitobning ahamiyatini ko'rsatib o'tishgan. Darhaqiqat, talaba tinglagan ma'ruzalaridan tashqari darslik, o'quv qo'llanma, ilmiy mavzudagi kitoblarni muntazam o'qib borishi lozim. Har kuni va muntazam kitob o'qish talabani fikr doirasini kengaytirib qolmasdan, balki uni o'ylashga, mushohada qilishga, narsa va hodisalarni bir-biri bilan taqqoslashga o'rgatadi. Bilim kengaygan sari talabada qoniqish, o'z ishidan mamnun bo'lish hislari yuzaga keladi. Shunday ekan, talaba har kuni 2-3 soat davomida kitob bilan ishlashga o'zini odatlantirishi zarur.

Talabalarda kitob o'qish madaniyati ham shakllangan bo'lishi kerak. U kitobni aniq maqsad asosida tushunib o'qishi, o'qigani ustida fikr yuritishi, mushohada qilishi, undan o'ziga kerakli xulosalar chiqarishi lozim. Kitob o'qiyotganida qo'lida qalam bo'lishi, o'zi uchun zarur deb hisoblagan, qalbidan joy olgan o'rinlarini belgilab borishi, ayrim joylarini xatto ko'chirib olishi maqsadga muvofiqdir.

Kitob o'qishda aniq bir vaqt ham muhim ahamiyatga ega. Agar talaba har kuni darslardan so'ng ma'lum bir soatda kitob o'qishga odatlansa, uning samarasi kundan-kunga ortib boradi. Kitobni tushunish, u haqida fikr yuritish osonlashib boraveradi.

Talabalarda mantiqiy fikrlashni tarbiyalash ko'p jihatdan o'qituvchiga ham bog'liq. Bunga avvalo universitetning pedagogi tayyor bo'lishi, talabalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning yo'l va usullarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

Mantiqiy tafakkurni tarbiyalash barcha darslarda: ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin. Buning uchun o'qituvchi mavzu materiali mazmunidan kelib chiqib, talabalar oldiga turli muammoli savollar qo'yish orqali ularni o'ylashga, muammo javobini axtarishga o'rgatishi lozim. Buning uchun o'qituvchi "Nega?", "Nima uchun?", "Qanday qilib?" kabi savollardan keng foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mantiqiy tafakkur quyidagi psixologik tamoyillar asosida guruhda shakllanadi:

1. Guruhiy vaziyat yangi g'oyalarni ishlab chiqishga turtki bo'ladi. Shu narsa aniqlanganki, inson guruhda faoliyat yuritganida, muammoni hal qilish uchun ko'plab javoblar topa oladi. U guruhda turli xil fikrlar ta'sirida bo'lib, bir insonning fikri boshqasiga turtki bo'lishi mumkin.
2. Bundan tashqari, guruhiy vaziyat guruh a'zolari o'rtasida musobaqalashishni vujudga keltiradi. Bu ijodiy jarayonni intensivligiga yordam beradi.



3. G'oyalarning miqdori ortgan sari ularning sifati ham oshadi. Oxirgi 50 ta g'oya oldingi 50 ta g'oyaga qaraganda, foydaliroq hisoblanadi. Bu narsa berilgan vazifa guruh a'zolarini yanada qiziqtirishi bilan bog'liq.
4. Tavsiya qilingan g'oyalar boshqalar tomonidan baholanishi psixologik tomondan to'g'ridir. Chunki, inson o'z ijodining kamchiliklarini qiyinchilik bilan anglaydi^[2].

Mustaqil, mantiqiy tafakkur va uning boshqa xususiyatlarini rivojlantirishda irsiyat orqali o'tgan tug'ma layoqat, hamda tirishqoqlik, o'z ustida ishlash, mehnat katta ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'z intellektual imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uni rivojlantirish uchun katta mehnat sarf qilgan kishi katta muvaffaqiyatlarga erishadi. U mehnatsevarligi sabab katta intellektual qobiliyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, yuqorida ta'kidlab o'tilganlarning barchasi yana bir bor izchil, tizimli ta'lim va mehnat tafakkur va aqlning turli sifatlarini rivojlantirishda qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etishimizga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dusmuxamedova, Sh.A. va b. (2021). Umumiy psixologiya (2-kitob). (Yosh davrlari va pedagogik psixologiya). Toshkent: TDPU.
2. Safayev, N.S., Mirashirova, N.A., Odilova, N.G. (2024) Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Bookmany print.
3. Рубинштейн, С.Л. (2003). Основы общей психологии. СПб: Питер.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.